**Аннотация:** В данной статье рассматривается понятие религиозного дискурса, его теоретическая основа и современные подходы в лингвистике. Особое внимание уделено анализу религиозных элементов в произведениях Тахира Малика “Последний выстрел” и “Шайтанат”. Проанализированы прагматические особенности и социально-психологическое влияние религиозного дискурса.

**Ключевые слова:** религиозный дискурс, прагматика, лингвистический анализ, Тахир Малик, контекст.

## KIRISH

Global kommunikatsiya, madaniy tafovutlar va axborot oqimlari kuchaygan bugungi davrda til nafaqat aloqa vositasi, balki ijtimoiy, mafkuraviy va diniy ma'nolarni uzatuvchi muhim diskurs maydoniga aylangan. Xususan, diniy diskurs inson tafakkuri, qadriyatlari va hayot tarzini shakllantirishda alohida o'rin egallaydi. Diniy diskurs deganda, diniy mazmundagi matnlar, nutqlar, yozma va og'zaki aloqa shakllari, shuningdek, diniy ideologiyalarni ifodalovchi tildan foydalanish jarayoni tushuniladi.

Dastlab, diniy diskurs faqat ilohiyotshunoslik doirasida o'rganilgan bo'lsa, bugungi kunda lingvistika, pragmatika, sotsiologiya va madaniyatshunoslik kabi fanlarda ham keng qamrovli tadqiqotlar olib borilmoqda. Xususan, diniy diskursda tilning lingvopragmatik jihatlari, ya'ni so'zlovchining maqsadi, tinglovchiga ko'rsatilayotgan ta'sir va kontekstual yondashuvlar alohida e'tibor markazida turadi.

Tohir Malikning “So'nggi o'q” va “Shaytanat” asarlarida diniy diskursning badiiy va funksional ifodalanishi O'zbekiston adabiy tilining boy imkoniyatlarini ko'rsatadi. Bu asarlarda diniy g'oya va qadriyatlar orqali ijtimoiy adolat, shaxsiy poklik, jamiyatlardagi yovuzlik va nur o'rtaqidagi kurash tahlil etilgan. Aynan shu jihatlarda diniy diskursni zamonaviy yondashuvlar asosida tahlil qilish zaruratini keltirib chiqaradi.

Mazkur maqolada diniy diskurs tushunchasining zamonaviy talqinlari, uning lingvopragmatik xususiyatlari, Tohir Malik asarlarida ifodalanishi va bularning ijtimoiy-ma'naviy kontekstda qanday talqin etilayotgani tadqiq qilinadi. Maqola nazariy manbalar tahlili, matn tahlili va komparativ metodlar asosida olib boriladi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Diniy diskurs tushunchasining ilmiy tahlili XX asrning oxiri va XXI asr boshlarida tilshunoslik, sotsiologiya va falsafa fanlarining integratsiyasi asosida shakllana boshladi. Xususan, M. Fuko diskurs nazariyasi orqali ijtimoiy nazorat va hokimiyatning til orqali qanday amalga oshirilishini ochib bergan bo'lsa, V.A. Lukov va S.A. Ter-Minasova kabi rus olimlari diniy matnlarning kommunikativ va ideologik xususiyatlariga e'tibor qaratganlar.



O'zbek tilshunosligida esa diniy diskurs alohida ilmiy yo'nalish sifatida ko'proq mustaqillik yillaridan so'ng shakllandi. Bunda A. Madvaliyev, S. Jo'rayev, M. Yo'ldoshev, I. Jo'raqulov singari olimlar til va madaniyat, til va din o'rtasidagi munosabatni tahlil qilgan asarlar bilan tanilgan. Ayniqsa, S. Yo'ldoshevning "Til va tafakkur" nomli tadqiqotlarida diniy tushunchalar va ularning lingvistik vositalar orqali ifodalanishi chuqur yoritilgan.

Xalqaro maydonda esa T.A. van Deyk, N. Ferklova va J. Ostin kabi mualliflar diniy diskursda kuch munosabatlari, illokutsion maqsadlar va pragmatik strategiyalarni ochib bergan. Jumladan, Ostinning nutq aktlari nazariyasi asosida diniy matnlar tahliliga doir ishlanmalar mavjud. Bundan tashqari, badiiy adabiyotda diniy diskursning tahlili ham e'tibordan chetda qolmagan. Ayniqsa, Tohir Malikning "So'nggi o'q" va "Shaytanat" asarlari diniy mafkura va insoniy qadriyatlar, imon, tavba, gunoh va jazolash kabi tushunchalarning badiiy talqini orqali diniy diskursning samarali vositasi sifatida ko'riladi. O'zbek badiiy matnlarida diniy mazmunning tahlil qilinishi hali to'liq o'rganilmagan bo'lib, bu boradagi tadqiqotlar yangi yondashuvlarni talab etmoqda. Ushbu maqola ayni shu ilmiy bo'shliqni to'ldirishga xizmat qilishi, diniy diskursning badiiy adabiyotdagi ko'rinishlarini zamonaviy lingvistik metodlar asosida yoritib berishga intiladi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqola diniy diskurs tushunchasini zamonaviy lingvistik yondashuvlar asosida o'rganishga qaratilgan bo'lib, tadqiqotda quyidagi metodologik asos va yondashuvlar qo'llanildi: lingvopragmatik tahlil – diniy diskursda til vositalarining vazifasi, ularning kommunikativ maqsadga yo'naltirilganligi, nutq egasi va auditoriya o'rtasidagi pragmatik munosabatlar tahlil qilindi. Ayniqsa, Tohir Malikning "Shaytanat" va "So'nggi o'q" romanlarida qahramonlar nutqidagi diniy so'z va iboralar kontekstual jihatdan o'rganildi. Diskurs tahlili – M. Fuko va T.A. van Deyk modeliga asoslanib, matnning sathida emas, balki uni yaratuvchi ijtimoiy, mafkuraviy va ruhiy kontekstlarda diniy diskurs shakllanishi tahlil qilindi. Diskursning hokimiyat, mafkura va axloqiy qadriyatlarga ta'siri o'rganildi. Komparativ metod – Tohir Malikning ikki asaridagi diniy diskurs elementlari solishtirilib, ular o'rtasidagi o'xshashlik va tafovutlar aniqlashtirildi. Ayniqsa, "Shaytanat"dagi din vositasida adolatni tiklash g'oyasi va "So'nggi o'q"dagi imon-e'tiqod orqali ruhiy poklanish motivlari taqqoslandi. Kontekstual tahlil – matndagi diniy mazmunli ibora va jumlar konkret voqea-hodisalar fonida, tarixiy, madaniy va ijtimoiy kontekstda tahlil qilindi. Bu orqali diniy diskursning funksional xususiyatlari ochib berildi. Deskriptiv yondashuv – diniy diskursga oid tushunchalar, iboralar, diniy konnotatsiyalar izchil tavsiflandi va lug'aviy jihatdan tahlil qilindi. Tadqiqotda nazariy manbalar, ilg'or lingvistik konsepsiyalar hamda Tohir Malikning romanlaridan olingan iqtiboslar asosida dalillangan fikr yuritildi. Metodologik asosning xilma-xilligi diniy diskursni chuqurroq o'rganish va uni badiiy adabiyot kontekstida tahlil qilish imkonini berdi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Tohir Malik asarlarida diniy diskurs nafaqat dini tushunchalarni ifodalash, balki axloqiy baholash, ijtimoiy muammolarni yoritish va ichki monologlar vositasida inson ongini ko'rsatish vositasi sifatida xizmat qiladi. "So'nggi o'q" va "Shaytanat" romanlaridan olingan misollar asosida diniy diskurs elementlari tahlil qilinadi. "Alloh meni kechiradi, degan umid bilan bugun bu o'qni oxirigisi qilaman..." ("So'nggi o'q") [T.Malik, 2005] jumlasida muallif qahramon tilidan "Alloh", "kechirish", "umid", "oxirgi" kabi diniy va ekzistensial mazmunli tushunchalarni uyg'unlashtirgan. Qahramonning ma'naviy iztiroblari diniy diskurs vositasida ifoda etilgan bo'lib, bu nutq aktining illokutsion maqsadi – tavba qilishga bo'lgan ichki ruhiy turtkidir. Shuningdek, bu misolda diniy diskurs ruhiy tozalanish va yangi hayotga o'tish bosqichini belgilaydi. "Harom yo'l bilan topilgan boylik baraka keltirmaydi." ("So'nggi o'q") [T.Malik, 2005] jumlasida Islom dinidagi iqtisodiy axloq me'yorlarini aks ettiradi.

Qur'oni karimda va hadislarda harom yo'l bilan topilgan mol-mulkning inson hayotiga ofat olib kelishi haqida ko'p marotaba ogohlantiriladi. Tohir Malik bu satr orqali nafaqat axloqiy, balki diniy jihatdan ham noto'g'ri yo'l tanlaganlarning holatini ko'rsatadi. Bu ibora diniy axloq targ'iboti, xabar beruvchi va ogohlantiruvchi diskurs hamda diniy identitetni mustahkamlovchi vosita sifatida xizmat qiladi. Tohir Malik asarida qahramonlar halollik, tavba, sabr, duo, qismat kabi tushunchalarni boshidan o'tkazadi. Bu jihatlar asarni diniy diskurs doirasiga olib kiradi. "Qalbida imon bo'lgan odam jinoyatga borolmaydi." ("So'nggi o'q") [T.Malik, 2005] satri asarda insonning imon bilan jinoyat o'rtasidagi ziddiyatli holatni ochib beradi. Islomda "imom" faqat e'tiqod emas, balki amaliy axloqiy me'yordir. Haqiqiy mo'min inson haromdan, zulmdan, jinoyatdan saqlanadi. Bu jumla axloqiy, Qur'onga yaqinlik va pragmatik jihatdan diniy diskursni mustahkamlaydi. Tohir Malik asarlarida diniy diskurs faqat dini iboralar bilangina emas, balki insonning ichki e'tiqodi, axloqiy tanlovi va ruhiy kurashi orqali ham chuqur ifodalanadi. "Alloh sabr qiluvchilar bilan birgadir. Buni eslash unga kuch berdi." ("So'nggi o'q") [T.Malik, 2005] satri Qur'on oyatlariga yaqin ma'naviy mazmun bilan boyitilgan bo'lib, "Inna Allaha ma'as-sobirin" (Al-Baqara surasi, 153-oyat) mazmuni bilan uyg'unlikda ifoda etilgan. Bu ibora qahramonning ichki ruhiy holatini ochib berar ekan, uni diniy-axloqiy qadriyatlarga tayangan holda sinovlarga bardosh berishga undaydi.



Diniy diskursda bu jumla ma'naviy tayanch, pragmatik maqsad va ijtimoiy identitetni mustahkamlovchi vosita sifatida namoyon bo'ladi. "Insonning niyati to'g'ri bo'lsa, Alloh yo'lini o'zi ochadi." ("So'nggi o'q") [T.Malik, 2005] iborasi islomiy aqidaga to'la mos bo'lib, Qur'oni karim va hadislarda niyatning pokligi va Allohning har bir bandaga niyatiga yarasha yo'l ko'rsatishi ta'kidlanadi. Bu jumla orqali muallif qahramonning ichki ishonchini, Allohga bo'lgan tavakkalini tasvirlaydi. Diniy diskursda bu ibora islomiy dunyoqarash ifodasi, pragmatik funksiyasi va axloqiy-diniy qadriyatlarni targ'ib etuvchi vosita sifatida xizmat qiladi. Tohir Malik asarlarida bu kabi diniy motivlar, iqtiboslar va diniy axloqqa asoslangan qarorlar qahramonlarning ruhiy olamini ochishda va asarning ma'naviy qatlamini chuqurlashtirishda xizmat qiladi.

#### **"Shaytanat" asaridan:**

"Asadbek oxirgi paytlarda yomon tushlar ko'rardi. Uydan chiqayotib qadam bosishga ikkilangan, bu bugungi kunim oxiri bo'lmasin, degan xayollar yuragini g'ash qilardi." ("Shaytanat") [T.Malik, 2017] Asadbek – jinoyat dunyosining "podshosi" bo'lishiga qaramay, qalbida xavotir, g'am, tushkunlik alomatlari paydo bo'ladi. Bu – uning vijdoni uyg'onayotgani, ya'ni imyon nurlari qalbiga kirib kelayotganining belgisi. Bu ichki kurash diniy diskursda qorong'ulikdan nur sari intilish sifatida talqin qilinadi.

"...Ko'zlarini yummoqchi bo'ldi, lekin yuragidagi vahima bunga yo'l qo'ymadi. Go'yo kimdir unga: sen hali javob bermading... deb turgandek edi." ("Shaytanat") [T.Malik, 2017] Bu parchada Asadbekning tavbaga ichki ehtiyoji seziladi. Lekin u hali bu bosqichga amalda emas, fikran yaqinlashgan. Shu sababli, uning immoni hali to'liq shakllanmagan, ammo diniy diskursdagi muhim burilish nuqtasi sifatida bu lahzalar asarda alohida o'rin egallaydi.

"...Baxtiyor aka har kuni tongda namozini o'qib, so'ng Xudo yo'lidan yurish niyatida ishga o'tlanardi. U jinoyat dunyosidan nafratlanar, adolatga ishonardi." ("Shaytanat") [T.Malik, 2017] Baxtiyor aka obrazi Allohga ishongan, pok niyatli, halol inson sifatida gavdalanirilgan. U jinoyatga qarshi kurashadi, shaxsiy manfaat emas, immoni asosida harakat qiladi. U asarda imyonli insonning ideal modeli sifatida ko'rsatiladi. Baxtiyor aka imyonli hayot tarzi bilan "Shaytanat" mafkurasiga zid turadi. Bu – asardagi diniy diskursning adolat va zulm o'rtasidagi ziddiyatli nuqtasidir.

Tohir Malikning "Shaytanat" asaridagi diniy diskurs – inson qalbidagi ezgulik va yovuzlik kurashi orqali ifodalanadi. Asadbek – tavba sari yurayotgan, ammo gunohda botib qolgan odam. Baxtiyor aka esa imyonli hayotning sobitqadam vakili. Bu ikki obraz orqali muallif ma'naviy uyg'onish, Allohdan qo'rqish, vijdon azobi va ruhiy poklanish g'oyalarini chuqur tahlil qiladi.

**Diniy diskurs orqali ijtimoiy baho.** "Odamlar masjidga boradi, ammo yuragida Alloh yo'q..." ("Shaytanat") [T.Malik, 2017] Bu jumla orqali muallif diniy riyo (munofiqlik) muammosini ochib beradi. Ushbu nutq vositasi evaluativ (baholovchi) diskurs sifatida xizmat qiladi. Bu yerda diniy atribut (masjid) bilan qalbiy haqiqat (yurakda Alloh borligi) orasidagi tafovut ifodalangan. Diniy diskurs bu yerda jamiyatdagi axloqiy inqirozni fosh etish vazifasini bajaradi.

**Gunoh va jazoni diniy konsepsiyada talqin qilish.** "Har bir qilgan gunohing bir kuni oldingga chiqadi, xuddi qorong'udagi soyadek..." ("So'nggi o'q") [T.Malik, 2005] Bu ibora metaforik diniy diskurs namunasi bo'lib, unda diniy kontseptual qarash – ya'ni har bir inson o'z qilmishiga javob beradi – poetik tilda ifodalangan. "Soyadek" metaforasi bilan gunohning doimiy kuzatuvchi kuch sifatida tasvirlanishi diniy diskursning estetik kuchini ko'rsatadi. "Xudodan qaytibdi!" ("Shaytanat") [T.Malik, 2017] Bu jumla Asadbekning boshiga kulfatlar yog'ilayotgani sababini izohlashda ishlatilgan. Bu iqtibosda diniy diskurs yaqqol namoyon bo'ladi. "Xudodan qaytibdi" iborasi orqali muallif insonning yovuzlik yo'lga kirishi, imyon va tavbadan uzoqlashishi oqibatida boshiga kulfatlar yog'ilishi mumkinligini ko'rsatadi. Bu asarda yovuzlikka qarshi kurashda dinning, imyonning o'zni inson uchun muhimligini ta'kidlaydi.

**Yovuzlikka qarshi din orqali kurash.** "Bu shahar jinoyatdan tozalanmaydi, agar odamlar yuraklariga Qur'onni joylamaguncha..." ("Shaytanat") [T.Malik, 2017] Bu misolda Qur'on timsolida din yovuzlikka qarshi kuch sifatida namoyon bo'lmoqda. Bu normativ diskurs turiga kiradi, ya'ni ijtimoiy muammoni yechish yo'li diniy qadriyatlar orqali ko'rsatilmoqda. "Shaytanat" asarida Asadbekning nutqidan keltirilgan fikrlar ko'plab axloqiy, ruhiy va diniy masalalarni ochib beradi. Asadbekning ichki kurashi va uning imyon bilan bog'liq qarorlarida diniy diskursning muhim o'zni bor.

**Iymon va isyon.** Asadbekning ruhiy holati asar davomida muhim o'zgarishlarga uchraydi. U o'zini xato yo'lda, gunohkor sifatida his qiladi. Diniy diskurs bu yerda uning ichki iztirobi va Allohga bo'lgan ishonchiga asoslanadi. U ko'pincha o'zining qarorlaridan pushaymon bo'lib, tavba qilishni xohlaydi, lekin ichki qarama-qarshiliklar uning qadamlarini sekinlatadi.

*Misol:* "Men bu hayotda nega yashayotganimni, nega bu yo'ldan yurayotganimni tushunmayman, faqat gunohlarimni o'ylayman." ("Shaytanat") [T.Malik, 2017] Bu satrda Asadbekning ichki kurashi va diniy diskursning yana bir qismi, ya'ni gunoh va tavba qilish o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik ko'rsatiladi.



**Gunoh va tavba.** Asadbek uchun diniy diskursda gunohning og'irligi va tavba qilishning zarurligi muhim ahamiyatga ega. U ko'pincha o'zining xatolarini tan olishga harakat qiladi, ammo ichki tushunmovchiliklar uni tavbadan qaytaradi.

*Misol:* "Har bir amalimni Allohga aytib, tavba qilishim kerak, lekin bu meni faqat yanada ko'proq iztirobga soladi." ("Shaytanat") [T.Malik, 2017]

Bu satrda diniy diskurs orqali gunohdan tozalash, tavba qilish va Allohga yuzlanish masalalari ochiladi. Asadbekning tavbasi hayotining tub o'zgarishlariga olib kelishi mumkinligini angelaydi, lekin u bu jarayonni juda qiyin deb biladi.

**Axloqiy qarashlar va ruhiy iztirob.** Asadbekning diniy qarashlari va axloqiy tanlovlari ko'pincha ruhiy iztiroblarga sabab bo'ladi. U o'zini yaxshi inson sifatida ko'rsatishga harakat qiladi, lekin ichki kurash va diniy tushunchalar uni ko'proq anglamagan va iztirobga solingan holatga keltiradi.

*Misol:* "Men hamma narsaga so'nggi o'zgarishlarni kiritdim, lekin bu ruhimni tozalashga yordam bermaydi. Allohdan yordam so'rayman." ("Shaytanat") [T.Malik, 2017] Asadbekning diniy diskursi uning ruhiy iztirobi va ichki qidirishlarida mujassamdir. U o'zining axloqiy holatini yaxshilash uchun diniy tushunchalar va amallarni izlaydi. Asadbekning diniy diskursi asarda ikki jihatni ko'rsatadi: birinchi jihat – uning ichki iztirobi va isyonini diniy nuqtayi nazardan anglash, ikkinchi jihat – tavba qilish orqali o'zini tozalash istagi. Diniy diskurs bu jarayonning asosi sifatida xizmat qiladi, chunki Asadbek xatolari va gunohlari bilan kurashish orqali o'zini Allohga yaqinlashtirishga harakat qiladi. Asadbekning diniy diskursi shuni ko'rsatadiki, u nafaqat o'zining ichki kurashlarini, balki jamiyatdagi axloqiy va diniy qadriyatlarni ham anglashga harakat qilmoqda. Unga diniy tushunchalar yordamida o'z hayotini qayta qurish, yaxshilash va Allohga bo'lgan e'tiqodini mustahkamlash imkoniyatlari beriladi. Asarda bir ayolning so'zlari orqali dunyoviy lazzatlar va gunohlar uchun oxiratda to'lanadigan narx haqida ogohlantiriladi: "Dunyo shaytonning do'koni, undan bir narsa oldingmi, shayton haqini undirib olmagunicha tinchimaydi." ("Shaytanat") [T. Malik, 2017]

Bu ibora orqali Asadbekning dunyoviy boylik va qudratga erishish yo'lida qilgan gunohlarining oqibati sifatida boshiga tushgan kulfatlar tasvirlanadi.

Asadbekning qizi Zaynabning xo'rlanishi va o'g'li Jamshidning o'limi uni chuqur iztirobga soladi. Bu holatda u o'zining qilgan gunohlarini anglab, tavba qilish istagini bildiradi. "O'zini nochor sezdi. "Bolang oldida qaddingni bukma! Hamisha adl tut. Hamisha dadil yur. Bolang seni yerparchin holda ko'rmasin. Dardga taslim bo'lganingni sezmasin. Seni hamisha kuchli deb bilsin va faxrlansin!" – mana shu aqidaga qattiq rioya qilib yashayotgan Asadbekda qaddini bukmoqqa moyillik sezildi." Bu satrda Asadbekning ichki kurashi, tavba qilish istagi va Allohdan mag'firat so'rashi tasvirlanadi.

Asadbek obrazida diniy diskurs quyidagi jihatlar orqali namoyon bo'ladi:

- **Gunoh va jazoning muqarrarliligi:** Asadbek qilgan yomon amallari uchun Alloh tomonidan jazolanishi.
- **Tavba va mag'firat istagi:** Asadbek qilgan gunohlarini anglab, tavba qilish istagi.
- **Dunyoviy lazzatlar va oxiratdagi jazolar:** Dunyoviy boylik va qudratga erishish yo'lida qilgan gunohlarining oxiratda jazolanishi.

Bu jihatlar orqali Asadbek obrazida diniy diskurs chuqur yoritilgan bo'lib, o'quvchini axloqiy va diniy masalalar haqida o'ylashga undaydi.

"Shaytanat" asarida nafaqat bosh qahramon Asad, balki boshqa bir nechta qahramonlar nutqida ham diniy diskursni kuzatish mumkin. Masalan, yana bir qahramon Elchin nutqi orqali ham diniy diskursni tahlil qilishda bir nechta misollar keltirish mumkin. Elchin asarda diniy tushunchalar, amallar va qadriyatlar bilan bog'liq ko'plab mavzularda so'zlaydi. Bu diskursning diniy o'lchamlarini tahlil qilishda quyidagi misollarni keltirish mumkin:

**Elchinning tavba qilishiga doir nutqi:** Elchin o'zining gunohlaridan pushaymon bo'lib, tavba qilishni tanlaydi. Bu yerda diniy diskurs shundaki, tavba qilish va gunohlarning afv etilishi haqidagi islomiy qadriyatlar muhokama qilinadi.

"Men endi Allohga tavba qilaman, barcha gunohlarimni afv etishini so'rayman."

Bu so'zlar diniy diskursning asosiy elementlari – tavba, afv etish va Allohning rahm-shafqatiga ishora qiladi.

**Elchin va dindorlar o'rtasidagi muloqot:** Elchin diniy aqidalar va diniy so'zlarni tinglaganida, ba'zida ularning haqiqiyliklari va amalda qanday tatbiq etilishini so'roq qiladi. "Agar haqiqatan ham islomda gunohni afv etish mumkin bo'lsa, men nima uchun xato qilishdan qo'rqmayman?"

Bu so'zlar orqali Elchin o'zining diniy qarashlarini, diniy ta'limotga bo'lgan shubhasini va diniy amallarni o'z hayotida qanday tasavvur qilayotganini namoyish etadi.

**Diniy qadriyatlarning kundalik hayotga ta'siri:** Elchin o'zining qarorlarini qabul qilishda diniy qadriyatlarni qanday hisobga olishini tushuntiradi.

"Insonning qalbi pok bo'lishi kerak, shunda u yolg'on va adolatsizlikka yo'l qo'ymaydi." Bu nutq diniy axloq va poklikka oid qadriyatlarni ta'kidlaydi.

**Diniy salohiyatga bo'lgan ishonch:** Elchin Allohga bo'lgan ishonchni va undan yordam so'rashni ta'kidlaydi. Bu diniy diskursda Allohga ishonish, unga tayanish va yordam so'rash masalalari markaziy o'rinda turadi.



*Misol:* “Agar men Allohga ishonmasam, nima uchun hayotda muammolarga duch kelsam, unga murojaat qilaman?” Elchinning bu soʻzlari islomda barcha ishlar va harakatlarning Allohga tayanish asosida amalga oshirilishi kerakligini bildiradi.

**Diniy sabr va iymon:** Elchin qiyinchiliklar va sinovlar oldida sabr qilish zarurligini taʼkidlaydi. Bu yerda diniy diskurs sabr, iymon va Allohning sinovlari bilan bogʻliq.

*Misol:* “Dunyo meni sinayotgan boʻlsa, men Allohning irodasiga boʻysunaman va sabr qilaman.” Bu soʻzlarda Elchin islomda sinovlarga sabr qilish va iymon bilan yondashish zarurligini koʻrsatadi.

**Tavhidga eʼtiqod va shirkdan saqlanish:** Elchin oʻz nutqida tavhidni (Allohning birligi) va shirk (Allohni oʻzgalar bilan tenglashtirish) masalasini koʻrsatadi. Bu diniy diskursda Allohning yagona hukmronligini tasdiqlash va shirkka qarshi kurash muhim ahamiyatga ega.

*Misol:* “Men faqat Allohga ishonaman, boshqa hech kimga tapinmayman, bu dunyoda faqat u menga yordam beradi.”

Bu nutq Elchinning islomiy eʼtiqodga toʻliq sodiq ekanini va shirkdan saqlanishni taʼkidlaydi.

**Diniy axloq va odamlar bilan aloqalar:** Elchin odamlar bilan muloqotda diniy axloq va axloqiy qoidalarini oʻz ichiga olgan izlanishlarini bildiradi. Diniy diskursda odamlar bilan qanday muloqot qilish, xushmuomalalik va adolatning oʻrni haqida soʻz yuritiladi.

*Misol:* “Men boshqa odamlarga adolatli boʻlishim kerak, Alloh bunday xulqni yoqtiradi.” Bu soʻzlar diniy axloqiy qadriyatlarni va adolatni taʼkidlaydi. Bu misollar Elchinning nutqidagi diniy diskursning har xil aspektlarini koʻrsatadi. Elchinning ichki ruhiy holati va diniy taʼlimotlarga boʻlgan munosabati orqali asardagi diniy taʼlimotlar, qadriyatlar va amallar qanday yoritilganini tushunish mumkin. “Shaytanat” asaridagi Zohid obrazi orqali ham diniy diskurs ancha teran ifodalangan. U – dindor, sadoqatli va halol inson sifatida tasvirlanadi. Uning nutqida Allohga tavakkal, sabr, taqvo, halollik va adolat singari diniy tushunchalar tez-tez uchraydi.

Quyida uning nutqidan diniy diskursga oid baʼzi aniq misollar keltiriladi:

“Alloh sabr qilgan bandalari bilan birgadir. Har bir sinov ortida bir hikmat bor.” Bu gap orqali Zohid islomdagi sabr fazilati va Allohga boʻlgan tavakkalni yoritadi. Bu fikr Qurʼonning koʻplab oyatlarida mavjud boʻlgan sabr va tavakkal tushunchalariga bogʻliq. “Men harom luqma yemaslikka ont ichganman. Oʻgʻrilik bilan kelgan pul baraka keltirmaydi.” Bu nutq diniy diskursda halol rizq va haromdan yiroq yurish zaruriyati haqida boʻlgan asosiy qadriyatni ifodalaydi. “Bandaning qalbi sinadi, lekin Allohning adolatidan umid uzmaydi.” Bu jumla orqali Zohid hayotdagi zulm va nohaqliklardan siqilsa-da, Allohning adolatli hukmiga ishonganini bildiradi. Bu islomdagi qazo va qadar, rahmat va adl (adolat) tushunchalariga daxldor. “Inson agar qalbini pok tutsa, har bir qadamida Allohni his qiladi.” Bu jumla islomdagi taqvo – yaʼni Allohdan qoʻrqib, harom ishlardan saqlanish va qalb pokligini saqlashga urgʻu beradi. “Alloh oldida har bir amal uchun javob beramiz. Kimdir bu dunyoda chetlab oʻtsa ham, u dunyoda qutulolmaydi.” Bu fikr islomdagi hisob-kitob, Qiyomat kuni va javobgarlik masalalariga ishora qiladi. Zohid bu orqali oʻzining iymonini, har bir ish Alloh tomonidan koʻrilishini anglatadi. “Biz bandamiz, kuchsizmiz. Har bir musibatda Allohga yuzlanishimiz kerak.” Bu nutq orqali Zohid dinda muhim oʻrin tutadigan duo va Allohdan najot kutish gʻoyasini bildiradi. Qurʼonda: “Menga duo qilinglar, Men ijobat qilaman” (Gʻofir, 60) degan oyatga mos keladi. “Zolimning zulmi uzoqqa bormaydi. Allohning qahridan hech kim qutula olmaydi.” Bu ibora ilohiy jazoni, Allohning qahrini va zulmga qarshi adolat haqidagi diniy diskursga misoldir. Zohid yovuzlikka qarshi faqat maʼnaviyat va eʼtiqod bilan turishni targʻib qiladi. “Qalbing pok boʻlsa, yoʻling yorugʻ boʻladi.

Alloh shundaylarga hidoyat beradi.” Bu gap vijdon, hidoyat va qalb pokligi kabi tushunchalarni oʻz ichiga oladi. Islomda qalbning pokligi ibodatdan ham muhim sanaladi. “Bu dunyo vaqtincha, baribir hammamiz qabrga boramiz. U yerda boylik emas, niyat savol qilinadi.” Zohidning bu soʻzlari Qurʼondagi: “Har jon oʻlimni totadi” (Oli Imron, 185) oyatiga muvofiq. U hayotning foniyligini eslatadi va insonni solihlikka chaqiradi. Zohid obrazi orqali yozuvchi Tohir Malik diniy diskursni ijtimoiy adolat, maʼnaviyat va halollik timsoli sifatida yoritadi. Zohidning har bir nutqi – jamiytdagi buzqlikka qarshi diniy ong va iymon asosida qarshilik sifatida xizmat qiladi. Asarda, shuningdek, Asadbekning maslahatchisi Mahmud Esonov nutqida ham diniy diskursga oid misollar uchraydi. U Asadbekning yaqin yordamchisi boʻlib, koʻp hollarda ehtiyotkor, mulohazali va oʻzining dunyoqarashi bilan ajralib turadi. Ayniqsa, hayot, oʻlim, taqdir va adolatga oid fikrlari diniy manbalar bilan bogʻliq. Quyida uning nutqidan diniy diskursga oid baʼzi misollar keltiriladi: “Bu dunyoda har bir narsa taqdir bilan. Bandaning qoʻlidan nima ham kelardi?” Bu jumla islomdagi taqdirga iymon, yaʼni qazo va qadar aqidasi asoslanadi. Mahmud Esonovning bu gapida inson imkonining chegaralanganligi va Allohning iroda va taqdiriga boʻysunuv ifodalangani. “Bu dunyo abadiy emas, har birimiz bir kun ketamiz. Qabrga hech kim pulini olib kira olmaydi.”

Uning bu soʻzi islomdagi foni dunyo va abadiy oxirat hayoti gʻoyasiga toʻgʻri keladi. Qurʼonda ham dunyo hayotining vaqtincha ekanini haqida koʻplab oyatlar mavjud. “Men bilaman, bu yoʻl halol emas, lekin baʼzan odamni majbur qilishadi. Alloh kechirsa, deymen...” Bu yerda Mahmud Esonov ichki iztirobini bildiradi. U harom bilan shugʻullanishining gunohligini anglaydi, ammo dunyoviy majburiyatlar uni qiynaydi. Bu izhor diniy diskursda tavba, pushaymonlik va rozi-rizolik masalalariga yaqin turadi. “Bu dunyoda zulm koʻp, lekin Alloh jim emas. Har kim oʻziga yarasha javob oladi.” Bu gap orqali Mahmud Allohning adolatli hukmi, bandaning javob-



garligi va oxiratda jazoga ishonchini bildiradi. Islom aqidasi bu jazo va savob tizimining asosiy g'oyasidir. "Biz ko'p gunoh qildik, bilaman. Lekin yurak baribir jim turmaydi... har tun pushaymonman." Bu nutq – diniy diskursdagi tavba, vijdon azobi va Allohdan kechirim so'rash holatining ko'zgusidir. U gunohini tan olib, ichki iymoniy inqiroz holatida ekanini bildiradi. "Ba'zilar gunoh ustida yashaydi, hech nima bo'lmaydi. Ba'zilar esa begunoh bo'lsa ham, qiynaladi. Lekin men bilaman, Alloh oldida hammasi ochiladi." Bu jumla oxirat adolati, ya'ni bu dunyoda ko'rinmayotgan haqiqat va jazolar Alloh huzurida oshkor bo'lishi haqida islomiy qarashni ifodalaydi. Bu – qiyomat, hisob va adl (adolat) tushunchalariga borib taqaladi. "Ajal keladigan bo'lsa, hech kim uni to'xtata olmaydi."

Har bir jon o'limni totadi." Bu to'g'ridan to'g'ri Qur'ondagi mashhur oyatga (Oli Imron, 185) havola bo'ladi. Mahmud bu gap orqali o'zini o'lim oldida o'qib deb biladi, ya'ni ajal – Allohning muqarrar amri ekanini anglatadi. "Tinch uxlay olmayman... Yurak halol bo'lmasa, uyqu ham harom bo'larkan." Bu yerda u ruhiy azob, vijdon va halol hayotning qadri haqida diniy ma'no kasb etuvchi fikrni bildiradi. Vijdon azobi islomda qalb kasalligi deb qaraladi. "Alloh guvoh, men bunday yashashni istamagandim... hayot majbur qildi." Bu jumlada Allohni guvoh sifatida tilga olish – islomda juda muhim diskurs. Mahmud o'zini oqlash uchun Allohning shohidligini keltiradi, bu esa samimiy tavbaga yetaklaydigan ichki holatni bildiradi. Mahmud Esonov – garchi jinoyat olamida yurgan bo'lsa-da, ruhiy jihatdan ichki tortishuvda, halollik va harom, taqdir va tanlov, tavba va iymon masalalarini ichki monologlarida ochib beradi. Bu orqali Tohir Malik obrazi orqali diniy diskursni ma'naviy inqiroz kontekstida yoritadi. Tohir Malik asarlarida diniy diskurs faqat diniy targ'ib qilish vositasi emas, balki ijtimoiy, axloqiy va psixologik g'oyalarni yetkazish usulidir. Diniy diskurs matnning chuqur ma'naviy qatlamini tashkil etib, qahramonlar tafakkuri va ichki kechinmalarini yoritadi. Bunday diskurs vositalari asarlar o'quvchiga ta'sirchan va qiziqarli yetib borishida muhim rol o'ynaydi. Zamonaviy yondashuvlar asosida diniy diskursni tahlil qilish, badiiy matnlarda qadriyatlar tizimini anglash imkonini beradi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu tadqiqot davomida diniy diskurs tushunchasining zamonaviy lingvistik talqini, uning badiiy matndagi ifodasi va funksional xususiyatlari chuqur tahlil qilindi. Ayniqsa, Tohir Malikning "Shaytanat" va "So'nggi o'q" romanlari misolida diniy diskurs unsurlari lingvopragmatik yondashuv asosida tahlil qilinarkan ekan, quyidagi asosiy xulosalarga kelindi: diniy diskurs zamonaviy lingvistikada faqat diniy nutq shakli emas, balki ijtimoiy, axloqiy va psixologik kontekstda shakllanadigan ko'p qatlamli kommunikativ hodisa sifatida qaralmoqda. Tohir Malik asarlarida diniy diskurs ichki ruhiy kechinmalar, axloqiy baholash, jamiyatdagi yovuzliklarga qarshi kurash kabi mavzularni yoritishda asosiy vosita sifatida xizmat qiladi. "Shaytanat"da diniy diskurs ko'proq ijtimoiy illatlar va mafkura bilan kurash vositasi sifatida ishlatilsa, "So'nggi o'q"da u tavba, poklanish va imon-axloq masalalarini ochib beradi.

Diniy diskurs orqali yozuvchi nafaqat diniy ma'lumot beradi, balki o'quvchida ma'naviy o'zgarish, ruhiy uyg'onish uchun turtki yaratishga harakat qiladi. Diniy diskursni faqat diniy matnlar doirasida emas, balki badiiy, publitsistik va kundalik nutq doirasida ham o'rganish lingvistik tahlilning yangi yo'nalishlariga asos bo'ladi. O'zbek adabiyotshunosligida diniy diskursni lingvopragmatik va diskursiv yondashuv asosida tizimli tadqiq qilish, diniy g'oyalar va til vositalari o'rtasidagi munosabatni aniqlash zarur. Yozuvchi Tohir Malik ijodidagi diniy diskurs namunalari o'rta va oliy ta'lim tizimida o'quv-uslubiy material sifatida qo'llash foydali bo'ladi, chunki ular orqali yosh avlodga diniy-ma'naviy qadriyatlarni singdirish mumkin. Kelgusidagi tadqiqotlarda diniy diskursni gender, yosh, ijtimoiy mavqe nuqtayi nazaridan tahlil qilish, uni yanada kengroq ijtimoiy-lingvistik kontekstda o'rganishga imkon yaratadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abduqodir, A. (2012). Qur'on tafsiri va zamonaviy yondashuvlar. Toshkent: Sharq nashriyoti.
2. Abdullayev, H. (2008). Islom axloqi asoslari. Toshkent: Ma'naviyat.
3. Alijonov, M. (2020). Diniy nutq va uning lingvopragmatik tahlili. Samarqand: Ilm Ziya.
4. Asad, T. (1993). Genealogies of Religion: Discipline and Reasons of Power in Christianity and Islam. Baltimore: Johns Hopkins University Press.
5. Hasan, L. (2021). Diniy diskurs: tahliliy yondashuvlar. Toshkent: Ijtimoiy fikr.
6. Foucault, M. (1980). Discourse and Power. New York: Pantheon Books.
7. Kress, G., & Van Leeuwen, T. (2001). Multimodal Discourse: The Modes and Media of Contemporary Communication. London: Arnold.
8. Malik, T. (2017). Shaytanat. Toshkent: Hilol-nashr.
9. Malik, T. (2005). So'nggi o'q. Toshkent: Sharq nashriyoti.
10. Van Dijk, T. A. (1997). Discourse as Structure and Process. London: Sage Publications.



- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari





# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2025. №4**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.